

ADABIYOT DARSLARIDA MUMTOZ ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH USULLARI

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'qituvchisi

To'raqulova Mahliyo G'ayrat qizi

Annotatsiya. Sharhlab o'qitish uzoq asrlar davomida ilm o'rganishda keng qo'llanib kelingan. Mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish bugungi kunda dolzarb masala sanaladi. Mumtoz matn ustida ishlash, notanish so'zlar lug'atini tuzish, o'quvchilarga mumtoz asarlardagi mazmun-mohiyatni yetkazish sharhlab o'qitish asosida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada Navoiy asarlarini sharhlab o'qitishning o'ziga xos usullari va amaliy jihatlari haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Sharh, matn, lug'at, g'azal, metod, usul. "Kim epchil, kim chaqqon", "Daraxt", "Izohini toping", "G'azalni tiklaymiz", "Bir savolga bir javob" kabi usullar bilan bir qatorda yangi metodlarni joriy etish (10-sinf misolida)

Dars ishlanma

Sana:

Vaqt: 45 daqiqa

Mavzu: Alisher Navoiy "Meni men istagan" g'azali.

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Navoiy hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish. Lirikasini o'rganish va sharhlash.

Tarbiyaviy: Navoiy hayoti va ijodidan ibrat bo'luvchi voqealarni keltirish. Vatanga, ota-onaga, do'stga, Ollohga bo'lgan ishqni o'quvchilarga tushuntirish. Ijodining keng ko'lamli ekanligini anglatish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda og'zaki muloqot, tezkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish

Darsning turi: Yangi bilimlar berish

Darsning metodi: "Kim epchil, kim chaqqon", "Daraxt", "Izohini toping", "G'azalni tiklaymiz", "Bir savolga bir javob" va b.

Darsning jihozi: Darslik, Navoiy g'azallari va qit'alari, metodik jurnallar, taqdimotlar, tarqatmalar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: Salomlashiladi. Navbatchi axboroti tinglanadi, davomat belgilanadi. O'quvchilar adabiy yangiliklar bilan tanishtiriladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Bunda sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lamiz. Jurnal bo'yicha toq raqamlilar bir guruh, juft raqamlilar esa boshqa bir guruh bo'lishadi. Guruhlar esa "Navoiy" va "Foniy" deb nomlanadi. "Alisher Navoiy hayoti va ijodi" o'tilgan mavzu ekanligini inobatga olgan holda, takrorlashni boshlaymiz.

Birinchi metod. "Kim epchil, kim chaqqon" deb nomlanadi. Duskada ikkita bo'sh oq plakat yopishtirilgan bo'lib, guruhlariga ikkita konvert beriladi. Konvert ichida savollar orqasida esa bir timsol yashiringan. Savollarga javob berishgach, plakatga javob berilgan bo'lakni yopishtirishadi. Natijada Alisher Navoiy surati hosil bo'ladi. Qaysi guruh birinchi shartni aniq va to'liq bajarsa, shu guruh g'olib bo'ladi.

Ikkinchi metod Navoiy tanigan, uning hayotida rol o'ynagan yoki bo'lmasa qaysidir ma'noda qarindoshlik darajasiga ega, ustoz, do'sti va boshqalarni daraxt tasviri orqali belgilab, chizib berishlari lozim. Buning uchun ikki daqiqa vaqt beriladi.

Guruhlar vazifani bajarib, topshirishlari lozim. Unda qancha ko'p inson bo'lsa va ularning kimligini izohlaganda to'g'ri ayta olishsa, o'sha jamoa yuqoriroq ball oladi.

III. Yangi mavzu bayoni. Adabiyot darsligida g'azallar va ularning baytma-bayt sharhi juda tushunarli va chiroyli qilib sharhlab berilgan. Jumladan "Ko'zing ne balo qaro bo'lubtur...", "Meni men istagan...", "Ey sabo..." g'azallari, "Haq taolo xoni in'omi-yu karami omi boride o'zgin nima tilagonning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi", "Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak", "Ul bobdakim jahon ahli bevaforud va alardin vafo ko'z tutmoq xatodir", "Shohni ahdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi ham"¹ qit'alari va bir necha ruboiylari keltirilgan.

Navoiyning lirik she'rlari jami sakkiz devonga jamlangan. Shundan yettitasi turkiy, bittasi forsiy lirikadan tashkil topgan. Navoiyning devonlarini jadval yoki chizma

¹ To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. I qism – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 93-b.

ko‘rinishida o‘quvchilarga taqdim etish va boy meros bilan yaqindan tanishtirish lozim. “Ilk devon”dan so‘ng, Husayn Boyqaro iltimosiga ko‘ra “Badoyi ul-bidoya”, ikkinchi devoni esa “Navodir un-nihoya”ni tuzadi. Forsiy tildagi barcha she‘rlarini yig‘ib, “Devoni Foniyy”ni yaratadi. Shoir barcha turkiy she‘rlarini yig‘ib, to‘rt devondan iborat “Xazoyin ul-maoniy”- “Chor devon”ni yaratadi².

“Xazoyin ul-maoniy” (“Ma‘nolar xazinasi”) - “Chor devon” - 16 janrga oid, har bir devonga bir xil miqdorda ya‘ni 650 tadan, 2 ming 600 ta g‘azal kiritilgan.

Shoirning umumiy g‘azallar soni 3 ming 154 tani tashkil etadi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash. O‘quvchilarga “Meni men istagan”g‘azalini yodlab kelishni topshiramiz. Ushbu g‘azalni quyidagi usullar orqali mustahkamlaymiz

“Bir savolga bir javob” metodi orqali mustahkamlashni boshlaymiz. Bunda - qisqa va tezkorlikda savollar beriladi, guruhlar esa javob berishlari lozim.

Ikkinchi metodimiz - “Mosini top!” deb nomlanadi. Bunda g‘azal matnidagi so‘zlar joyi o‘zgartirilgan holda taqdim etiladi. So‘zlarni ketma-ketlikda asl holicha tiklab g‘azal matnini yaratish lozim. Demak, quyidagicha topshiriq shakli beriladi. Sardorlar bellashishadi.

1-guruh uchun:

Meni/ suhbatig‘a/istagan/ o‘z/ arjumand/ istagan/ etmas,

Meni/ ko‘nglum/ istar /kishining/ pisand/suhbatin/ etmas.

Ne/ mendin/ topqamen/ bahra/ andinki/ istagay/ bahra,

Chu/ bahramand/ ulkim/ tilarmen/bahrayi/ andin/ etmas.

2-guruh uchun:

Netay/yo /hur-u pari/ qatlim/ hayoting‘a/ bazminki

Ayon/ nihon /ul /zahr /no'shxand /chashm/ aylab /bu / etmas.

Kerakmas /ila/ kun/ oy/ husn-u malohatdin/ shaklikim

Ichim/ tanim /band-band/ ul chok-chok etmas/ bu etmas.

V.Baholash. Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirilib baholanadi.

VI.Uyga vazifa. Navoiy g‘azallaridan yod olib kelish. G‘azalni sharhi bilan tanishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zunnunov A., Esonov. J. Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.

² Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: Ta‘lim-Media, 2019. 109-b.

2. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. I qism – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017

3. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikas. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

4. Tursunova M. Madrasalar ta'limida adabiyot o'qitish usullari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017.